



Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg inbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 28-aprel № 4 (1526)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

2023-YIL 30-APREL –
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
REFERENDUMI KUNI



9-MAY – XOTIRA VA QADRASH KUNI

Ikkinci jahon urushida bobolarimiz jahonni fashizm balosidan asrab qolishda o'zlarining jonlaridan, sog'liliklaridan voz kechib bugungi baxtli turmushimizni ta'minlashga juda katta hissalarini qo'shganlar.

Bugun ular oramizda kam qoldi. Bekobod shahrida urush faxriyalaridan faqatgina uch nafari – Jalol Iskandarov, Hasanboy Xolmatov va Tursun Musurmonqulov umrguzaronlik qilmoqda. Shahrimiz faxrlari bo'lgan bu otaxonlar nafaqat oilasi, balki metallurqlar, bekobodliklar, mamlakatimiz ardog'iida.



MAY OYINING UCHINCHI YAKSHANBASI – 21-MAYDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONCHILIK VA METALLURGIYA SANOATI XODIMLARI KUNI NISHONLANADI. BEKOBODLIK METALLURGLAR KASB BAYRAMLARINI MUNOSIB MEHNAT NATIJALARI BILAN KUTIB OLİSHMOQDA.

**KASB BAYRAMINGIZ MUBORAK
BO'LSIN, AZIZ METALLURGLAR!**



BUGUNGI SONDA

TABRIK

Bayramlar
muborak bo'lsin!

2

9-MAY

Xotira muqaddas,
qadrlash burch

4

KONFERENSIYA

Inson manfaatlari –
oliy qadriyat

5

SANALAR

Sharafli yo'l

6

"YASHIL MAKON"

Obodlik farovonlik
ko'zgusidir

7

OCHIQ GAPLAR

Hukm o'qildi

8

So'ragan edingiz

Mehnat ta'tili
uzaytiriladimi?

9

Salomatlik

Inson hayoti uchun
eng xavfli kasallik

10

SPORT

"O'zimizga ishonch
yanada oshdi"

11

IBRATLI HIKOYA

Qadrlagan qadr topadi

12

KIRIB KELAYOTGAN BAYRAMLAR MUBORAK BO'LSIN!

Hurmatli metallurglar va ishlab chiqarish faxriylari! Qadrli bekobodliklar!

"O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi va o'z nomimidan sizlarni kirib kelayotgan bayramlarimiz - Xotira va qadrlash kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metalluriya sanoati xodimlari kuni bilan tabriklayman.

Xotira va qadrlash kuni ajdodlarimiz jasoratini ulug'lash va ota-bobolarimiz nomlarini abadiylashtirishga xizmat qilayotgan muhim bir sana sifatida barcha yurtdoshlarimiz qalbidan chuqur joy oldi.

9-mayda ikkinchi jahon urushida erishilgan buyuk G'alabanining 78 yilligi ham nishonlanadi. Fashizmga qarshi kurashda halok bo'lgan minglab vatandoshlarimizning so'nmas xotiralarini yod etib, ularning ruhi poklariga hurmat bajo keltirish - biz uchun ham qarz, ham farzdir. Ayni vaqtida mustaqil Vatanimiz ozodligi, el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan jasur harbiyalarimizning nomlarini ham hurmat va ehtirom bilan esga olamiz.

Konchilik va metalluriya sanoati xodimlari kuni shahrimiz uchun alohida e'tiborli bayramdir. Zero hamshaharlarimizning aksariyati mehnat faoliyatları, hayotlari "O'zmetkombinat" AJ bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Metalluriya sanoati - mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi. Mamlakatning rivojlanish sur'atlari, ijtimoiy dasturlarning muvafqaqiyatlari amalga oshirilishi, odamlarning hayot sifatining yuksalishi bevosita uning faoliyati natijalariga ham bog'liq.

Bugungi kunda "O'zmetkombinat" AJ metall prokati, shuningdek, mis va uning qotishmlaridan tayyorlangan mahsulotlar, issiqlik o'tkazmaydigan materiallar, po'latdan sirlangan idishlar va boshqalarni ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinni mustahkam egallab turibdi. Mahsulotlarimiz xalqaro bozorlarda ham munosib o'rnini egallagan.

Hurmatli metallurglar!

Sizlar bilan birga biz bekobodlik metallurgingarning eng yaxshi mehnat an'analarini davom ettirmoqdamiz. Har qanday vazifalarni yuqori saviyada bajarib, O'zbekistonning sanoat salohiyatini yuksaltirish, investitsiya jozibadorligini oshirish, ijtimoiy sohani mustahkamlashga

salmoqli hissa qo'shmoqdamiz.

Oldinda bizni yangi loyihamar, yangi taraqqiyot dasturlari, jiddiy investitsiyalar kutmoqda. Biz yangi ishlab chiqarish texnologiyalari ni joriy qilib, o'zlashtirmoqdamiz, korxonamiz quvvatini bir necha barobar oshirish imkonini beruvchi yirik investitsiya loyihamarini amalgalashmoqdamiz. Ulardan biri - "Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi" mamlakatimizda eng yirik investitsiya loyihamaridan biridir. Mazkur loyihaning amalga oshirilishi bilan "O'zmetkombinat" AJning ishlab chiqarish quvdati ikki barobarga ortadi.

Aziz metallurglar!

Sizlarni yana bir bor bayramlar bilan tabriklab, kasbiy mahoratingiz, ishga bo'lgan mas'uliyatingiz va kombinatga sadoqatingiz uchun samimiy minnatdorchilik bildiraman. Ishonchim komilki, sizlarning bebaho tajribangiz va kasbiy mahoratingiz kombinatga bundan keyin ham metalluriya sanoatining yetakchilaridan bo'lib qolish imkonini beradi.

Faxriylarimizga alohida minnatdorchilik bildiramiz. Sizlarning kombinatimiz taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissangizni qadrlaymiz. Hayotingiz, mehnatingiz yoshlar uchun ibrat maktabini o'tab kelmoqda.

Barchangizga ahillik va hamkorlikda mehnatda yanada yuqori marralarni zabit etishda muvaffaqiyatlar, baxt, tinchlik va salomatlik tilayman!

**Rashid PIRMATOV,
"O'zmetkombinat" AJ
bosqaruv raisi - bosh direktor.**



METALLURGLAR MADHIYASI

Yaratgandan xalqimizga tuhfa, tortiq,
Bu inshoot yoshi yetmish yildan ortiq.
Tiriklikning har jabha, har sohasida
Hayotimiz doim temir bilan bog'liq.

Osmono'par minoralar temir bilan,
Ko'priklar-u favvoralar temir bilan,
Qad ko'tarmish qancha bino, koshonalar,
Po'lat quvurlardan oqar benzin, metan.

Naqorat:
O'rta Osiyo ichra tanho mahobati,
Faxrim mening, metalluriya kombinati.

O'nlab sexlar tunu kun ish yuritadi,
Qora metallarni zangdan aritadi,
Bir ming olti yuz issiqlik darajada
Cho'yan pechlar po'latlarni eritadi.

Sachrab, olov uchqunlardan zarlar yog'ar,
Temirlar sut kabi qaynab, shamday oqar,
Zomindagi granitu, bazalt qumlar
Issiq sovuq o'tkazmaydi, bir xil tutar.

Naqorat:
Qozonlarda go'yo Quyosh harorati,
Faxrim mening, metalluriya kombinati.

Dunyo bilar bugun savlat, viqorimiz,
Navoiyda, Olmaliqda hamkorimiz,
Shijoatli qancha yoshlar, faxriylar
Qahramonlar - bizning g'urur ham orimiz.

Yurtimning ko'p yer osti zar, oltinlari,
Og'ir sanoatda shahdam odimlari,
Kuchog'ida mehnat qilib, topdi baxtin
O'n mingtadan ziyod ishchi xodimlari.

Naqorat:
Bekobodning tashrif qog'oz - salobati,
O'zbekiston metalluriya kombinati!

Sharobiddin BOLTABOYEV.



KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOT - BUGUNNING TALABI, ERTANING KAFOLATI!

30-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha umumxalq referendumi o'tkaziladi.

Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya'ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Amaldagi 128 ta moddadan 91 tasiga konseptual o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Konstitutsiya loyihasiga ko'ra, Konstitutsiya muqaddimasidan to oxirgi moddalarlagi normalar inson huquq va erkinliklari, ularning manfaatlari ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi va kafolatlanadi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdar shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Eng ahamiyatlisi, inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilanmoqda. Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz hamda hech narsa ularni kamsitish uchun asos

bo'lishi mumkin emas.

Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgartirishlarning aksariyati jamiyat va davlatning o'zaro hamkorligi tizimini takomillashtirish, davlat organlari tizimini optimallashtirish va takomillashtirishga qaratilgan. Masalan, mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlaring vazifalarini ajratish to'g'risidagi masala ko'rildi, bu hozirda hokimlar qo'lida. Bu tizim o'zgartiriladi.

Parlament faoliyatiga taalluqli juda jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda, ularning roli ancha jiddiy oshiriladi. Parlament yangi vakolatlarni oladi.

Yana bir qator jiddiy o'zgarishlar, Konstitutsiyada O'zbekistonning dunyoviy davlat, ijtimoiy davlat ekanligi to'g'risidagi qoidalar mustahkamlangan. Bular O'zbekistonda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar sohalarida modernizatsiya siyosatini amalga oshirishga qaratilgan ulkan o'zgarishlardir.

Ularning barchasi O'zbekistonni samarali iqtisadiy va siyosiy tizimga ega suveren davlat sifatida mustahkamlashga qaratilgan.



sodiy va siyosiy tizimga ega suveren davlat sifatida mustahkamlashga qaratilgan.

Yangilangan Konstitutsiya jamiyatimiz hayotining barcha yo'nalishlarini kompleks tartibga solish hamda mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo'lida eng muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga kiritilgan yangi normalar barcha sohalarni taraqqiy ettirishga, shu jumladan, davlat hokimiyatining yanada samarali tashkil qilinishiga yordam beradi.

"KONSTITUTSIYA - O'ZIMIZNIKI"

Respublikamizning barcha hududlari da bo'lganidek Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha tushintirish tadbirlari kombinatimizda ham tashkil etildi.

Kombinat Birlashgan kasaba uyusmasi qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan shunday tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi Tolibjon Orziyev ishtirok etdi. U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha o'tkaziladigan referendumi va uning huquqiy asoslari, tashkiliy jihatlari hamda fuqarolarning referendumda ishtirok etish shartlari haqida kerakli ma'lumotlarni berib o'tdi.

Mana shunday tadbirlar Elektrada po'lat eritish sexida, Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexida, Metalurglar madaniyat saroyida o'tkazildi. Shuningdek, kombinatning tarkibiy bo'linmalarida mehnat jamoalari konferensiysi oldidan o'tkazilgan yig'ilishlarda ham "Yangilanayotgan Konsti-

tutsiya" bo'yicha metallurqlar orasida tushuntirish ishlari olib borildi.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiysi bilan hamkorlikda ham kombinatda bir qator shunday tadbirlar tashkil etildi. Metallurqlar madaniyat saroyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Nodirjon Abduvaliyev, Viktor Pak, O'zLiDeP Toshkent viloyat Kengashi raisi, viloyat deputati To'lqinjon Fayziyev, Adliya vazirligi xodimi Tolibjon Orziyev hamda "O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisi - bosh direktor Rashid Pirmatovlar ishtirokida o'tkazildi.

Shuningdek, "O'zmetkombinat" AJning O'zLiDeP boshlang'ich partiya tashkiloti raisi, Bekobod shahar Kengashi deputati Davlat Xolmurodov tashabbusi bilan sexlarda ham bir qator shunday tadbirlar tashkil etildi. Unda yangi tahrirdagi konstitutsiyada aks ettirilayotgan normalarning mazmun-mohiyati to'g'risida atroficha ma'lumotlar berildi.

INSON MANFAATLARI UCHUN XIZMAT QILADI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson manfaatlari uchun xizmat qiladi. Unda O'zbekiston - suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yilmoqda.

Ijtimoiylik - bu insonga e'tibor va g'amxo'rlik degan ma'noni bildiradi. Ushbu tamoyilden kelib chiqib Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlar bilan bog'liq normalar uch barobarga oshmoqda.

Konstitutsianing 33-moddasida har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan. Unga asosan har kim istalgan axborotni izlash, olish va targatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foy-

dalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Yurtimizda ertamiz egalari yoshlarimiz aholining 60 foiziga yaqinini tashkil etadi. Yangilanayotgan Konstitutsianing 300 dan ziyod hayotbaxsh normalari eng avvalo, yoshlarning farovon turmushi, porloq kelajagini ta'minlashga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

Bir so'z bilan aytganda, yangilanayotgan Konstitutsiya hayotimizdagi dolzarb masalalarga yechim bo'lib, inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'taradigan kuchli huquqiy va ijtimoiy himoya vositasi bo'ladi.

**Hasanboy SHOKIROV,
mehnat faxriysi.**



"YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI BIRLASHAYLIK!"

Shahrimizdag "Yoshlar bog'i"da 20-aprel kuni "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik!" shiori ostida galla konsert bo'lib o'tdi. Mazkur konsertda O'zbekiston xalq artisti Gulsanam Mamazoitova, Hamdam Sobirov, Imron hamda Samandar Hamroqulovlar ishtirok etdilar. San'atkorlar sho'x va dilrabo qo'shiqlari bilan bekobodliklarni xushnud etishdi.



XOTIRA MUQADDAS, QADR LASHESA BURCHDIR

MATONAT MADHIYASI

Toshkent shahridagi "G'alaba bog'i" markaziga Zulfiya Zokirova va uning frontdan qaytmagan besh o'g'li, sadoqatli kelinlari xotirasiga bag'ishlangan "Matonat madhiyasi" yodgorlik majmuasi O'zbekiston onalariga yuksak hurmat-ehtirom ramzidir. Ana shunday fidoyi onalarimiz - sevgan yori va farzandlariga, oilasi va yurtiga sodiq ayollarimizning jasorati yoshlarimiz uchun Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat, sabr-matonat timsoli bo'lib xizmat qiladi.



AZIZ TUYG'U ASRIY QADRIYATLAR

Xotira va qadrlash - xalqimizning asriy qadriyatlari, ulug' fazilatlardan biridir. El-yurtining tinchligi, osoyishtaligi, erki va ozodligi uchun kurashgan insonlar hamisha xalqimiz ardog'idadir. Yurtimiz taraqqiyoti va farovonligiga katta hissalarini qo'shgan ajdodlarimiz, bu yo'lda umrini bag'ishlagan bobolarimiz, sabr-bardosh bilan katta qiyinchiliklarni yengib o'tgan momolarmizni sharaflash, xotirasini abadiylashtirish, ularga g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish mustaqillik yillarda yangicha ma'no-mazmun bilan boyidi.

Vatan ravnaqi, xalq osoyishtaligi uchun xizmat qilgan el fidoyilari esa ezgu amallari sabab umrbod kishilar yodidan o'chmaydilar. Nomlari hamisha e'zoz bilan tilga olinib, xotiralari mangulikka muhrlanadi.

IKKINCHI JAHON URUSHI HAQIDA AYRIM HAQIQATLAR QISQA SATRLARDА

1941-yilda Respublikamiz aholisi 6 million 800 mingdan ziyod kishini tashkil etardi. Qariyb 2 million yurtdoshimiz frontlarga yo'l oldi. Ularning 500 mingdan ziyodi shafqatsiz janglarda halok bo'lди. 604 ming 52 nafar hamyurtimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdi, bedarak ketganlar soni haqida aniq ma'lumotlar yo'q.

Urushdan jabr ko'rgan 1 million 500 mingdan ortiq keksalar, ayollar va bolalar respublikamizga ko'chirib keltirildi. Ularning 200 mingdan ziyodi ota-onasidan ayrilgan yetim bolalar edi.

Olti yil davom etgan ikkinchi jahon urushida o'sha paytda dunyodagi mayjud 73 ta davlatdan 62 tasi, Yer yuzi aholisining 80 foizi ishtirok etgan.

Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alaridagi 40 ta davlatni bevosita qamrab olgan urush harakatlariga 110 million kishi safarbar etilgan. Urushda jami 70 million kishi halok bo'lgan. Sobiq Ittifoq respublikalaridan qariyb 27 million kishi urush qurban bo'lgan.

XOTIRA ABADIY, QADR - MUBORAK

Buyuk ajdoddarga makon bu diyor,
Har birin nomidan dilda iftixor,
Baxtiyor avlodlar degay minnatdor,
Xotira abadiy, qadr - muborak.

Mangu olov go'yo yurakdagi sham,
Kim vatan demishdir, nomi
muhtaram,
Xalq mard o'g'onlarin unutmas bir
dam,
Xotira abadiy, qadr - muborak.

Xayriyat, o'tibdir notinch zamонлар,
Bizga yuz ochmishdir yangi
bo'stonлар,
Shu kunga yetmади, afsus, ne jonlar,
Xotira abadiy, qadr - muborak.

Motamsaro ona poyida bugun,
O't mishni yod etib turibmiz beun,
Sharaf, tirik qaytgan otalar uchun,
Xotira abadiy, qadr - muborak.

Davlatim rahbari aylab iltifot,
Katta-kichik ko'nglin ayladi obod,
Nuroniq qalblarda hamdu hasanot,
Xotira abadiy, qadr - muborak.

Abdulahad degay, hur O'zbekiston,
Istiqlol yo'lida bo'lsin tinch, omon,
Barcha vatandoshlar dilida har on,
Xotira abadiy, qadr - muborak.

**Abdulahad qori
SHAHRIXONIY.**

XALQ JASUR O'GLONLARINI UNUTMAYDI

SO'NMAS U KUNLAR SHUHRATI



Razvedkachilar o'zlariga yuklangan katta mas'uliyatni his etgan holda dushmanning joylashgan o'rni, kuchi, texnikalari haqida ma'lumotlar to'play boshlaydilar. Ular fashistlarning katta harbiy istehkomlarining aniq xaritasini qo'lga kiritadilar. Uchchovlon otishmalarda omon qolib bu xaritani dushman changalidan olib chiqishadi. Natijada dushmanlarning istehkomlarini ishg'ol qilishda bu xarita juda qo'l keldi.

Berikboy ota nemis fashistlarini Berlingacha quvib bordi. Janglar-

da bir necha marotaba jasoratlar ko'rsatib, mukofotlar bilan taqdirlandi. Urushda ko'pgina safdosh do'stlari mardlarcha halok bo'lishdi. Uning o'zi ham ko'p marta o'lim changalidan omon qoldi.

Fashistlar poytaxti Berlin egalananib, buyuk G'alabaga erishilgandan so'ng ham Berikboy ota uchun urush tugamadi. Harbiy qismi bilan u Uzoq Sharqda bo'layotgan yapon urushiga safarbar etildi. Ular xizmat qilayotgan harbiy qism Mongoliya va Xitoy davlatining ko'pgina shahar va qishloqlarini yapon

bosqinchilaridan tozalash janglarda ishtirok etdi. Xaloskor armiya safida u bu davlatlarda ham urush tugatilib, tinchlik o'rnatalishiga katta hissasini qo'shdi. Urushdan so'ng Port Artur shahrida 1950-yilga qadar harbiy xizmatni davom ettiradi.

Berikboy ota xizmatdan qaytib 1952-yildan O'zbekiston metalluriya zavodiga ishga kiradi. Korxonamizning qo'riqlash qismida, so'ng Marten, Prokat sexlarida metall kesuvchi, Energetika sexida nasos uskunalari bo'yicha mashinist vazifalarida ishlagan.

Bugun ota oramizda bo'lmaseda u va uning safdoshlari nomi minnatdor avlodlar qalbida mangu yashaydi.

Zero, ajdodlar xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, yurtimiz tinchligi va ravnaqi yo'lida xizmat qilganlarga alohida hurmat-e'tibor ko'rsatish mam-lakatimizda milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Biz ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Ismat DIYOROV.

Kombinatda ishchi-xodimlarning mehnat qilishlari ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilinishi, dam olib, sog'liklarini mustahkamlashlari uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi tadbirlar kombinat boshqaruvi va Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi o'ttasida tuzilgan jamaoa shartnomasi asosida olib borilayapti.

INSON MANFAATLARI – OLIY QADRIYAT

Yaqinda "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasining jamaoa shartnomasi va ilovalarining 2022-yilda bajarilishi, 2023 – 2025-yillar uchun yangi jamaoa shartnomasi loyihasini tassidiqlash bo'yicha konferensiysi bo'lib o'tadi. Kombinat ishchi-xodimlari ichki mehnat tartibi, texnologik intizom va mehnatni muhofaza qilish me'yorlarini bajarib, qonunchilikda hamda kombinatning jamaoa shartnomasida belgilangan imtiyozlar, kafolatlar, huquqlardan foydalanib kelishdi.

Korxonamizda xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatini himoya qilish barobarda texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jamaoa shartnomasida mehnat xavfsizligi daramasini yuksaltirish, ish joylarining sanitariya-gigiena holatini yaxshilash, maishiy xonalar bilan ta'minlash, ish o'rinnarini shahodatlash, mehnat muhofazasi qoidalari bo'yicha o'qitish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Jamaoa shartnomasi orqali metallurglar va oila a'zolari dam olish va sog'lomlashtirilishining tashkil etilishi korxonada ustuvor ahamiyatga egaligini ta'kidlash zarur. O'tgan yil ishchi-xodimlar va ularning oilasi a'zolari imtirozli ravishda kombinat sanatoriy-profilaktoriysida o'z sog'lilqarini mustahkamlab, "Metallurg" pansionatida hordiq chiqarishdi.

Kombinat mehnat jamoasi konferensiysi oldidan barcha tarkibiy bo'linmalarda yig'ilishlar bo'lib o'tdi. Bu yig'ilishlarda jamaoa shartnomasi va uning ilovalari qanday bajarilganligi hamda yangi jamaoa shartnomasi loyihasi muhokama qilindi. Jamaoa shartnomasining bajarilishi va yangi jamaoa shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha metallurglar tomonidan ko'plab taklif va fikrlar bildirildi.

"Inson manfaatlari – oliy qadriyat" tamoyili ga asosan o'z ishlarini tashkil etayotgan kasaba uyushmalarimiz metallurglarning taklif va tanqidlarini nazardan chetda qoldirmaydilar. Ular doimo e'tibor markazida turadi.

Diyor ZULFIQOROV.

YANGI JARAYONLARGA XOS TEXNOLOGIYALAR

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruvi tizimlari laboratoriysi kombinat sexlaridagi avtomatlashtirilgan tizimlarga xizmat ko'rsatish hamda sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida bir necha yil avval tashkil etilgan. Dastlab laboratoriya kombinat TJABT tizimlarining soz holatini ta'minlash, tizimda yuzaga kelgan to'xtalishlarni bartaraf etish masalalari bilan shug'ullangan. Hozirgi vaqtida esa o'z loyihalarini ishlab chiqarishga joriy etish vazifalarini bajarmoqda. Bunga misol qilib, yuqori omli koks ishlab chiqarish loyihasining avtomatik boshqaruvi tizimini ko'rsatish mumkin. TJABT laboratoriysi mutaxassislarini loyiha uchun kerakli asbob-uskunalarni tanlash, boshqaruvi tizimi algoritmlarini tuzish hamda texnologik jarayonlarni kompyuter orqali boshqarish va nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqishib, butun dasturiy ta'minot to'plamini muvaffaqiyatli ishga tushirdilar.

Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexida pechlarning elektr yoyini avtomatik tarzda boshqarish tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi. Bu esa ferroqotishmalar ishlab chiqarish vaqtini sezilarli darajada qisqartirish va shunga mos ravishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Shuningdek, o'tgan yil Navli prokat sexi-ning 1-sonli utilizator qozoni, Xalq istemoli mollari ishlab chiqarish sexining Fritta ishlab chiqarish pechlari uchun texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruvi tizimlari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi. Issiqlik o'tkazmas materiallar ishlab chiqarish sexining ishlab chiqarish liniyasini boshqaruvi tizimlarining dasturiy ta'minotlari yangidan ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etildi.

"Ikkilamchiqoramettallar" filiallaridagi bir qator yuk ko'tarish kranlarining boshqaruvi tizimlariga chastota o'zgartirgichlar o'rnatilib, modernizatsiya qilindi.

Ayni vaqtida laboratoriya mutaxassislarini kombinat hududida joylashgan podstansiyalarini boshqarish va markaziy kuzatish tizimini yaratish uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqishmoqda. Elektrda po'lat eritish sexining 2-sonli metallarni uzlusiz quyish mashinasida ko'tarib buruvchi stendining nasos akkumulyator stansiyasining boshqaruvi tizimi uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqarilayapti.

Shuningdek, Elektrda po'lat eritish sexining



1- va 2- sonli ohak kuydirish pechlari, Energetika sexining 1-sonli qozonxonasi boshqaruvi tizimlarini modernizatsiya qilish uchun dasaturiy ta'minotlar ishlab chiqilmoqda.

Kombinatda amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyiha "Quyuv-prokatlash majmuasi" doirasida laboratoriya mutaxassislarining bilim va ko'nikmalari oshirilib loyihaning TJABT qismi bo'yicha uskunalarni sozlash va ishga tushirish ishlariga tayyorgarlik ko'rilmoxda.

Bu ishlarni amalga oshirishda Tolibjon Rahmatov, Bekzod Jo'rayev, Aziz Sharipov, Muzaffar Mamadaliyev va Sanjarxon Axatovlar kabi xodimlar hamkaslariga o'rnak ko'rsatib ishlaamoqdalar.

Amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi kombinat iqtisodiy salohiyatining yuksalishi asos bo'lmoqda. Bu jarayonda TJABT laboratoriyasining ahamiyati ortib boraveradi. O'z navbatida yangidan yangi texnologiyalarni tatbiq etish ulardan yanada izchil izlanishni va doimo bir qadam oldinda yurishni talab etadi.

Sheroz SHUKURALIYEV.

TEMIR YO'L MUKAMMAL TA'MIRLANDI

Yagona logistika markaziga qarashli Temir yo'l xizmati tomonidan joriy yilning yanvar – mart oylarida kombinatning "Sirdaryoikkilamchiqora metall" filialining Bayovut uchastkasidagi kirish temir yo'llari kuchaytirilgan tarzda mukammal ta'mirlandi. Ta'mirlash ishlarida Yagona logistika markazining Avtotransport xizmati ishchi-xodimlari ham ishtiok etishdi.



380 metr uzunlikdagi ekspluatatsiya qilish uchun yaroqsiz holga kelib qolgan temir yo'lni mukammal ta'mirlash natijasida kombinatning 275 million so'mdan ko'proq miqdordagi pul mabjag'larining tejab qolinishi ta'minlandi.

Temir yo'l montyorlari tomonidan temir yo'l tarmog'i reislari va mahkamlovchi qismlarini to'liq almashtirish orqali demontaj qilish, yo'l ustki tuzilishining barcha detallarini belgilangan ketma-ketlikda qismlarga ajratish kabi ishlar muvaffaqiyatli bajarildi. Ish jarayonida kichik texnik vositalar, yuk ko'taruvchi va avtomobil texnikalari yordamidan foydalanildi.

Temir yo'lni kapital ta'mirlash jarayonida relshpal panjaralari almashtirildi. Sheben yotqizish, yo'lni ko'tarish orqali undagi baland-pastliklar bartaraf etildi. Ko'tarib to'g'irlangan va yangi o'rnatilgan yo'llardagi shpallarning ostini zichlash, yo'l enini me'yorlash, yog'och shpallarni temir beton turdag'i shpallarga almashtirish

hamda strelkali o'tkazgichni ta'mirlash kabi ishlar ham yakuniga yetkazildi.

Mukammal ta'mirlashdan so'ng Bayovut uchastkasidagi kirish temir yo'llarida vagonlarda qora metall parchalari va chiqindilarini tashishda harakat xavfsizligi ta'minlandi.

Rustam QARSHIYEV.



Shahrimizning "otaxon" gazetasi 80 yoshda* Shahrimizning "otaxon" gazetasi 80 yoshda* Shahrimizning "otaxon" gazetasi 80 yoshda*

SHARAFLI YO'L

1942-yil dekabr oyida O'zbekiston metallurgiya zavodining dastlabki yordamchi sexi poydevorini qurish boshlandi. Oradan 2 oy o'tib 1943-yilning fevralida marten, martda prokat sexlarining poydevorlariga birinchi kubometr beton quyildi. Aprel oyida – olovli, suronli yillarda "За металл" va "Metall uchun" gazetasining birinchi soni nashrdan chiqdi.

II jahon urushi davom etayotgan, zavod qurilishi endigina boshlanib oldinda ko'plab muammolar ko'ndalang turishiga qaramay dastlab korxonada gazeta bekorga ochilmagan edi. Chunki, quruvchilarining ruhini ko'tarib, ularni mehnat sur'atini tezlashtirishga chaqirib tashkilchilik ishini bajarish gazeta yordamida amalga oshirildi.

Dastlab "За металл" va "Metall uchun" bir gazeta sifatida yarmi o'zbek, yarmi rus tilida chop qilingan. Biroq zamona zayli bilan ko'p o'tmay bu gazetaning ikki sahifasi ham rus tilida nashr etila boshlanadi.

Korxona poydevorini qurish, tiklash, yangi quvvatlarni ishga tushirish va nihoyat kombinatning iqtisodiy yuksalishida bu gazetaning, ijodkorlarning – avval ishlab ketganlar va bugun qalam tebratayotgan jurnalistlarning ham katta xizmatlari bor.

Gazeta turli millat vakillarining do'stona, bir oila a'zolaridek ishlab, qahramonlarcha mehnat qilishga ruhlantirishda faol tashkilotchi bo'ldi. Ishlab chiqarish ilg'orlarini elga tanitishda katta tashviqot ishlarini olib bordi. Mehnat jamoasini yangiliklar bilan o'z vaqtida tanishtirib borishda muhim rol o'yndi.

Ko'p yillar u nafaqat kombinatning, balki Bekobod shahrining ham yagona gazetasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham "За металл"-ni shahrimizning "otaxon" gazetasi deyish mumkin.

O'tgan yillar davomida gazetada ko'plab jurnalistlar mehnat qilishdi. Ayniqsa, Anatoliy Aleksandrovich Degtyaryov va Anatoliy Aleksandrovich Sklyarovning gazetaga ko'p mehnati singgan. A. Degtyaryov 36 yil "За металл"-ga muharrirlik qilgan bo'lsa, 50 yildan oshiq

zavodda ishlagan tajribali metallurg A. Sklyarov 22 yil, deyarli umrining oxirigacha muharrir o'rinosari bo'lib ishlatdi. Shahrimizda rahbarlik lavozimlarda ishlab tanigan, armiya safida hamda o'qish davrida gazetalarda ishlagan Nikolay Illich Silantev, shuningdek, Olga Makbulova

bir necha yil muharrir o'rinosari bo'lib faoliyat ko'rsatdilar. Erkin Ibragimov, so'ng Leonid Kim gazetada suratkash, Oqila Abdurahmonova sahifalovchi-kotiba vazifasida ko'p yillar ishlashdi.

80 yilda o'nlab, yuzlab jamoatchi muxbirlar gazetaning chiqishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shib keldilar.

Tahririyat jamoasini, jamoatchi muxbirlarni gazetaning 80 yillik yubileyi bilan tabriklaymiz.

Hasanboy ODILOV.



Bugungi kunda Nigora Axmedova gazeta muharriri, Ravshan Boltaboyev muharrir o'rinosari va Sardor Boboyev suratga oluvchi sifatida samarali ishlayaptilar.

YONG'IN XAVFSIZLIGI - DOLZARB MASALA

Ob-havo issishi bilan yong'in xavfi ortadi. Ayniqsa, issiqlik taftidan qurigan o'tlar, yonuvchan mahsulotlar bu xavfni yanada oshiradi.

Bunday sharoitda "O'zmetkombinat" Ajda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida bir qancha holatlarga e'tiborli bo'lishimiz talab etiladi. Bunday holatlardan biri bu – sex va uchastkalarida tozalikni saqlash hisoblanadi. Atrof-muhitning tozaligi, uning ortiqcha yonuvchan mahsulotlar dan holi bo'lishi har birimizning xotirjam va samarali mehnat faoliyatimizga sabab bo'ladi.

Aksincha holatlarda, ya'ni atrof-muhitning issiqlik ta'sirida sarg'aygan o'tlar va e'tiborsizlik natijasida turli yonuvchan mahsulotlar bilan qoplanishi yong'in kelib chiqishi mumkin bo'lgan omillar hisoblanadi. Hududimizda tozalikka rioya qilish va shu orqali yong'in xavfsizligini ta'minlash sexlarimiz uchun alohida ahamiyatli sanaladi.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, kelib chiqishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish doimiy mas'uliyat talab qiladigan vazifadir. Shunday ekan, ana shu mas'uliyatni his qilsangiz, davlat va shaxsiy mol-mulkingizni asrab qolgan bo'lasiz. Zero, yong'inni o'chirgandan ko'ra, uning oldini olgan afzal.

Diyor NOMOZOV,
"O'zmetkombinat" AJ OYOXTTEB
katta inspektori, leytenant.

"ЗА МЕТАЛ" VA "METALL UCHUN"

1-son. 1943-yil. 27-aprel. Seshanba.

Gazetaning birinchi sonida o'zbek tilidagi sahifasida to'rtta maqola va bitta she'r chop etilgandi. O'zbekiston metallurgiya zavodi qurilishi boshlig'i Shamet Aytmetov rahbarligidagi jamoaning Murojaatnomasi hamda aprel rejasi muddatdan oldin bajarilgani va oylik rejani muddatdan oldin bajargan o'rak uchastkalar, shuningdek, qurilishni jadallashtirish uchun targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirishga bag'ishlangan maqlalar berilgan. Bu sahifada Hamid Olimjonning harakatdagi armiyadan yozgan "Shinel" nomli she'ri ham joy olgan.

Rus tilidagi sahifada ham Murojaat bilan birgalikda zavod qurilishiga bag'ishlangan maqola va xabarlar berilgan edi.

1977-yilning 18-may kuni Xalqaro muzeylar Kengashi tomonidan ta'sis etilgan kasb bayrami endilikda dunyoning bir yuz elliqdan ortiq davlatida keng nishonlanmoqda. O'zbekiston muzeylari 130 yillik tarixga ega.

MUZEY – MA'NAVIYAT O'CHOG'I

Muzeylar ajdodlardan meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina. Yillar davomida boyib, to'lib boraveradigan bu xazina faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmay, uzoq tarix sahifalaridan so'zlovchi bebaho kitob hamdir.

"O'zmetkombinat" Ajning tarixi muzeyi



nafaqat korxonaning, balki shahrimizning eng ko'zga ko'rigan madaniy-ma'rifiy maskanlaridan biridir. Muzeysda kombinat qurilishidan toki ayni paytdagi faoliyati, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, taniqli metallurglar to'g'risida to'liq ma'lumot olish mumkin. Yoshlar muzeysda bo'lib ota-bobolarining eng og'ir yillarda ham mardonavor mehnat qilganlarini eksponatlar orqali o'rganib, ulardan ibrat olishadi.

Muzeylar o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ma'naviyat ko'prigi hisoblanadi. Shu bois bu yerda saqlanayotgan har bir tarixiy eksponat orqali kombinatning 79 yillik an'analari, qadriyatlarini o'rganish mumkin.

Yoshlar muzeysda bo'lib ota-bobolarining eng og'ir yillarda ham mardonavor mehnat qilganlarini eksponatlar orqali o'rganib, ulardan ibrat olishadi. Ana shunday holda eng yaxshi mehnat an'analari davom etishi da muzeymizning ham o'z o'rni bor.

“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI – AMALDA

OBODLIK FAROVONLIK KO‘ZGUSIDIR

Mamlakatimizda ekologik, sanitariya-epidemiologik muhit barqarorligini asrash, yashil hududlarni kengaytirish, aholi yashash joylari, korxona va tashkilotlar atrofini tartibga keltirib, yanada obod va so‘lim maskanlarga aylantirish ishlari eng dolzARB ishlardan biriga aylangan.

Kombinat hududiga kirgan kishi metallurglar mehnati bilan yaratilayotgan go‘zallikni ko‘rib bahri dili ochiladi, kayfiyati ko‘tariladi. Kombinat hududi katta yashil bog‘ni eslatadi. Bu yerdagi yashil hudud yildan yilga kengayib, ko‘plab mevali, manzarali daraxt va gullar ekilmoqda. Ishlab chiqarish binolari yaqinidagi gulzorlar va favvoralar, prokat va po‘lat ishlab chiqaruvchilar xiyobonlaridagi gullar, yo‘llar bo‘yidagi sug‘orish favvorachalari va gulzorlar kombinat hududiga o‘zgacha chiroy baxsh etib, mikroiqlim sharoitini yaratishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunlarda kombinatning

Klining xizmati jamoasi obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha keng hajmli ishlarni amalga oshirmoqda. Ular korxonamizning sanitariya muhofazasi zonasidan yangi yosh daraxt ko‘chatlarini parvarishlamoqdalar. Bu joyda chinorlar, katalpa, nilufar, oq terak, olcha, olxo‘ri, olma va nok daraxtlari, turli xil yong‘oqlar kabi manzarali va mevali daraxtlarning ko‘p navlari o‘sadi.

Xabarlingiz bor, yangi “Kasaba market” savdo shoxobchasidan uncha uzoq bo‘lmagan Elektrda po‘lat eritish sexi xiyobonidagi kombinatning tashqi qismiga archa oila-

siga mansub ko‘plab daraxt ko‘chatlari ekilgan. Mavsumiy gullar va maysazorlar, beda olib kelinib, ekilgan. Shuningdek, Ijroiya apparati yaqinidagi yo‘llar va maydonlarga gullar ekildi. Aytish joizki, bu yil kombinatga turli xil gul urug‘lari keltirildi. Klining xizmatining issiqxonasida yetishtirilayotgan ko‘plab gullar kombinat hududlariga ekilmoqda.

Kombinatning bog‘larida sug‘orish tizimlari ham ta’mirdan chiqarildi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘tgan qishda g‘ayritabiyy sovuqlardan keyin ko‘plab daraxtlarni sovuq urdi. Biroq mutaxassislar zarar ko‘rgan daraxtlarni qayta tiklash uchun barcha choralarни ko‘rmoqda, bu esa ularning yana ko‘karishlari uchun imkon beradi.

Issiqliknin o‘tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish sexi yaqinida, 5-sonli nazorat-o‘tish punkti yaqinidagi maydonlarda katta ishlarni amalga oshirildi. Klining xizmatining bog‘bonlari maysazorlarni tartibga solishdi, daraxt shoxlariga shakl berib, butashdi, kuzda tushgan quruq barglarni, chiqindilarni olib tashlashdi. Elektrda po‘lat eritish,



Navli prokat, Ta‘mirlash-mexanika sexlari avtoturargohlari yaqinida daraxt ko‘chatlari ekildi.

Bu ishlarni amalga oshirishda ustalar Abduvahob Aliqulov, Komiljon Ernazarov, Abbas Tolibjonov, Najmiddin Mamayusupov boshchiligidagi ko‘kalamzorlashtirish ishchilari, Klining xizmati energetik-ta‘mirchilaridan Nabijon Shokirov, Sirojiddin Erkaboyevlar mehnatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishmoqda.

Xurshid VALIBEKOV.



O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

KO‘CHIRISH QOIDALARI

75. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi to‘q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor kabi. Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi. va‘-da, ma‘-rifat, mash‘-al, in-om kabi.

76. So‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular quyidagicha ko‘chiriladi:

1) so‘z boshidagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi: a-ba-diy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan kabi;

2) so‘z oxiridagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrga ko‘chirilmaydi mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, matbaa kabi.

77. O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko‘chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi dia-gramma, mono-grafiya kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi: silin-drik kabi.

78. Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko‘chiriladi: pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq,

bi-chiq-chi, si-ngil, de-nbiz kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek ko‘p xonali raqamlar satr dan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi. AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: 5-“A” sinfi, “V” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: “Navro‘z—92” (festival), “O‘qituvchi—91” (ko‘rik-tanlov), “Andijon—9”, “Termiz—16” (g‘o‘za navlari), “Boing—767” (samolyot), “Foton—774” (televizor) kabi.

82. A.J. Jabborov, A.D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek v.b. (va bohqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harflar oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.



XALQARO TANLOV G‘OLIBLARI

Toshkent shahrida har 3 yilda bir o‘tkaziladigan “Art silk way” xalqaro ko‘p janrlı san‘at ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Ko‘rik-tanlovdagi “O‘zmetkombinat” AJ Metallurglar madaniyat saroyining Gulnoza Turdiboyeva boshchiligidagi “Parvoz” namunali bolalar raqs to‘garagi a‘zolari ham ishtirok etishdi.

Xalqaro ko‘p janrlı san‘at ko‘rik-tanloving xoreografiya yo‘nalishi bo‘yicha Yulduz Tolipova “Surxoncha gulpari” hamda “Andijon polka” raqsini ijro etgan Malikaxon Nabiyevalar g‘olib deb topilib, faxrli birinchi o‘rinni egallahdi.

KOMBINAT MULKIGA KO'Z OLAYTIRGANLAR JAZOLANDI

Ota-bobolarimiz qadim-qadimdan or-nomusi, sabr-toqati, jasorati va halolligi bilan ajralib turgan. Ajdodlarimiz ko'p qiyinchiliklar ko'rib, aziyat chekkanlar. Biroq qiyinchiliklarda yanada toplanib, bu xislatlarini yo'qotishmagan.

Bobolarimiz peshin vaqt kirganida bozorlardagi do'konlarini ochiq qoldirib, bemalol masjidlarga borib namozlarini o'qib kelishgani haqida ko'p eshitganmiz. Chunki, o'g'rilar bo'lmasan. O'g'rilik eng sharmandali ish bo'lgan. Afsuski, bugun unday emas. Hozirgi kunda pul topish ilinjida o'zganining mulkiga ko'z olaytirib, tajovuz qiladiganlar oramizda borligi juda afsuslanarlidir.

JINOIY REJA

Yaqinda "O'zmetkombinat" AJda Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudining ochiq sayyor sud majlisi o'tkazildi. Unda kombinatning Qurilish-montaj bo'linmasi ishchilariga oid jinoyat ishi ko'rib chiqildi.

Sudlanuvchilar Nazar Gafurov, Ali Xursandov va Shohruh Nurulloev (ism, familiyalar o'zgartirilgan) o'zlarini ishlaydigan joydan alyumin profillarni va metall prokati mahsulotlarini yashirin ravishda talon-taroj qilish maqsadida jinoi reja tuzishadi. Bu rejalarini amalga oshirish maqsadida alyumin profildan ishlangan akfa romlarni, 3-4



metr dan bo'lgan burchakli temirlarni kombinat hududidan yashirincha olib chiqmoqchi bo'ladilar. Shu maqsadda umumiy narxi 9 705 126 so'mlik vazni 96 kg. bo'lgan alyumin profillarni va umumiy narxi 3 155 320 so'mlik 100 metr uzunkorda bo'lgan metall prokati mahsulotlarini ish joylarida bo'lgan yuvinish xonasidagi shkaflar orqasiga yashirib qo'yishadi.

QILMISHLARI FOSH BO'LDI

N. Gafurov "O'zmetkombinat" AJ hududida tekshirish bo'lishi haqida eshitib qoladi. U yashirib qo'yilgan alyumin profillarni va metall prokati mahsulotlarining topilib qo-



lishidan xavfsirab, bu haqda o'zining jinoi sheriklariga xabar beradi.

Ular o'zaro maslahatlashib yashirib qo'yilgan mahsulotlarini boshqa joyga olib borib berkitishga kelishib oladilar. Shu maqsadda 2022-yil 11-dekabrda ish kuni bo'lmasada, soat 19.00 larda kombinat hududiga 1-sonli nazorat-o'tish punkti orqali kirib kelishadi.

Kechgacha "O'zmetkombinat" AJ hududida qulay fursat kelishini kutishadi. Soat taxminan 22.00 larda yashirib qo'yilgan mahsulotlarining bir qismini Qurilish-montaj bo'linmasi omborxonasining orqa tomonidagi Klining xizmatiga tegishli daraxtzor orasiga yashirishadi. Qolgan qismini ham yashirmoqchi bo'lishganida ushbu hududda xizmatni olib borayotgan kombinatning idoraviy harbiylashtirilgan qorovullik bo'limi qorovuli ularni ko'radi. Buni sezgan uch hamtovoq yashirinishadi.

300-400 metr uzoqlikda temir yo'lining yo'lagi ustida bir shaxs sharpasini ko'rishgan qorovullar



u yerga yetib borishganida hech kimni topa olishmaydi. O'sha vaqtida qor yoqqan bo'lgani sababli qorda yangi oyoq izlarini ko'radir. Ushbu izlar bo'yab borib, daraxtzor ichida yashirib qo'yilgan mahsulotlarni topib olishadi.

HUKM QILINDI

Keyinchalik mazkur jinoyat kimlar tomonidan sodir etilganligi aniqlanadi. Ular tergov qilinib, ishlari sudga oshiriladi.

Sud hay'ati bu jinoi ishni ko'rib chiqib, hukm qildi. Unga asosan N. Gafurovga ish haqining 20 foiz miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda ikki yil u muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi berildi.

A. Xursandov va Sh. Nurulloyevlarga esa ish haqining 20 foiz miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda ikki yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi sud'yasi.

NEGA UYLARIMIZDA KUTUBXONALARIMIZ YO'Q?

NIMAGA RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KITOB, GAZETA KO'P O'QILADI?

Afsuski, bizda kitobxonlik darajasi juda pasayib ketdi.

Nega uyimizda kutubxonalarimiz yo'q? Nega ilm, kitob talash emas? Nima uchun kutubxonalarimiz bozorlarimizdek gavjum emas?"

Bu savollarga internetdagi saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda axborotlar juda ko'pligidan odamlar shular bilan ovora bo'lib qolishgan deb javob berishadi. Shu o'rinda mulohaza tug'iladi. Internet tarmog'i Yaponiya, Koreya, Germaniya singari davatlarda bizdan ko'ra, o'n, yuz marta yuqori darajada rivojanganini ham hech kim inkor etmasa kerak. Lekin o'sha davatlarda nafaqat kitoblar, balki minglab nomdag'i gazeta va jurnallar million-million nusxada, hatto bir kunda ikki marta ertalabki va kechki sonlari chop etilmoqda.

MUTOLAA TARAQQIYOT GAROVIMI?

Badiiy adabiyotga ehtiyojni kitoblarning savdosibilan o'lchasa bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda 37 million aholi yashaydi. O'zbekistonda yiliga qancha badiiy adabiyot sotiladi, degan savol bor. Javob: 1 millionta ham sotilmaydi. Rivojlangan davlatlar ichida AQSHda kitobxonlik darajasi unchalik yuqori bo'lmasa ham yiliga 300 million aholi 400 millionta badiiy kitob sotib oladi (faqat badiiy adabiyot soni).

INSON TAFAKKURINING OZUQASI

Dunyoni faqat ilm bilan zabit etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmnini chuqur egallashning yo'li esa bitta – kitob o'qishdir.

Inson bilimni asosan kitob orqali oladi, uning tarbiyasi ham kitob yordamida shakllanadi. Yoshlarimiz badiiy adabiyotlarni o'qiganda, ularning dunyoqarashi kengayadi, hayotga munosabati o'zgaradi. Ma'naviyati, ma'rifati yuksaladi.

Zero, kitob – qalb chirog'i, tafakkur qanoti.



Bugungi kunda eng ko'p yoqilg'i sotadigan davlatning yillik daromadi 113 milliard dollar ekan, Hindiston esa 130 milliarddan oshiqroq mablag'ga IT mahsuloti sotar ekan. O'tgan yili va undan oldingi yillarda Hindiston kitob o'qish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinnlarda turadi. Xitoyda ham xuddi shunday. U yerda kitobxonlik shu qadar jiddiy e'tibor ostidaki, davlat tomonidan bevosita nazoratga olingan. Chunki Xitoy mamlakat sifatida, dunyodagi porloq kelajagi shunga bog'liq ekanini anglagan.



BOYLAR KITOB O'QIYDILAR. SIZCHI?

Bugungi kunda dunyoda badavlat odamlar ko'proq kitob o'qiydilar. Boylarning 88 foizi kuniga kamida yarim soat kitob o'qiydilar. Kompaniyalarning bosh direktorlari yiliga o'rtacha 60 dan ortiq kitob o'qiydilar.

Jahonning eng boy odamlaridan Bill Geyts yiliga 50 ta kitob o'qiydi, Uorren Baffet kuniga besh-olti soatni kitob o'qishga bag'ishlaydi.

Ilon Mask o'qishni yaxshi ko'rgani uchun raketa yasashni o'rganganini tan olgan.

TARIXIY HAQIQATNI UNUTMAYLIK!

Ming afsuski, kitob o'qishni targ'ib etishga qaratilgan qator hukumat qarorlari chiqqan bo'lsada yillar davomida birorta ham kitob o'qimay qo'yidik.

Ehtimol, kitob, gazeta o'qimay qo'yanligimiz uchun bugun oilaviy ajrimlar tobora ko'payib, jinoyatchilik ortib borayotgandir. Gazeta, kitob o'qigan inson hech qachon yomon bo'lmaydi, qing'ir yo'lga yurmaydi. Bundaylar odatda vatanparvar, ma'naviyati va ma'rifati yuqori insonlar bo'lishadi.

Diyor ZULFIQOROV.

ISH HAQINI TO'LASHNI KECHIKTIRGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK YO'QMI?

Amaldagi mehnat kodeksining 161-moddasida Jamoa shartnomasida ish beruvchining aybi bilan xodimga haq to'lash belgilangan muddatlarga nisbatan kechikkanligi uchun javobgarlik nazarda tutilishi mumkin deyilgan. Ammo bu qoida amalda ishlamas edi. Sababi ishxonalarning jamoa shartnomalarida bu kabi qoidalar deyarli belgilanganmagan. Yangi mehnat kodeksida bu borada o'zgartirish kiritilganmi?

K. Valiyev.

Yangi mehnat kodeksining 333-moddasiga asosan Ish beruvchi ish haqini, ta'til to'lolarini, mehnat shartnomasi bekor qilingandagi to'lolarini va xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lolarini to'lash muddatini buzgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan e'tiboran to haqiqatda hisob-kitob qilingan kunni o'z ichiga olgan muddatgacha har bir kechiktirilgan kun uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'sha vaqtida amalda bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foizlar (pulli kompensatsiya) bilan birga to'lashi shart.

Xodimga to'lanishi lozim bo'lgan pulli kompensatsiyaning miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining o'n foizi miqdorida belgilanadi.

Bu qoida ish beruvchilarga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Tasavvur qiling bir korxonada yuzlab xodimlar ishlaydi, ularning kechiktirilgan oylik haqi uchun ish beruvchi pulli kompensatsiya to'lasa ish beruvchiga qanchalik javobgarlik ortadi.

Yangi mehnat kodeksi kuchga kirsa, ish beruvchilar xodimlarning oyligini kechiktira olmaydigan bo'ladi.



50 FOIZGACHA CHEGIRMA BERILADI

Yo'l harakati qoidasini buzganlar 15 kun ichida uning jarimasini to'laganda chegirma berilar edi. Hozir bu qoidaga yangi o'zgartirish kiritilgan ekan. Shu haqda ma'lumot bersangiz?

A. Jivanov.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martda "Ahliga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda sohada korrupsiyon omillarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu qaror asosida 2023-yil 1-maydan boshlab ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha qo'llanilgan jarimani ixtiyoriy to'lash tizimi yanada soddalashtirildi. Qarorga ko'ra huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan bosh-



MEHNAT TA'TILI UZAYTIRILADIMI?

30-apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasining yangi Mehnat kodeksi kuchga kiradi. Bu kodeks asosida ishchi-xodimlarning mehnat ta'tili uzaytiriladimi?

R. Yo'ldoshev.

Avvalgi kodeksning 134-moddasiga asosan xodimlarga o'n besh ish kunidan kam bo'lman gan muddat bilan yillik asosiy ta'til berilishi belgilangan edi. Yangi kodeksning 217-moddasiga ko'ra har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomiyligi yigirma bir kalendar kunni tashkil etishi belgilandi.

Bundan tashqari yillik ish staji uchun har yili qo'shimcha mehnat ta'tili ham beriladi. Yangi kodeksning 220-moddasiga asosan xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun davomiyligi ikki kalendar kun bo'lgan, biroq jami sakkiz kalendar kundan ko'p bo'lman gan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi.

Bu modda qonunchilikda ish staji uchun har yilgi uzoqroq qo'shimcha mehnat ta'tilli rali berilishi nazarda tutilgan ayrim toifadagi xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Qonunchilikda, jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida, boshqa ichki hujjatlarda yoki mehnat shartnomasida har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tilini olish huquqini beruvchi ish stajiga boshqa ish beruvchidagi ish stajini kiritish nazarda tutilishi mumkin.

Agar xodim ish beruvchining taklifiga ko'ra ishga qabul qilingan bo'lsa, har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tilini olish huquqini beruvchi ish stajiga boshqa ish beruvchidagi ish staj kiritiladi.



lab o'n besh kun ichida jarima miqdorining 50 foizini, o'ttiz kun ichida 70 foizini ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarima ning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinadi.

Mazkur tartib sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Hozirgi (1-maygacha amalda bo'ladi) tartibga asosan, 15 kun ichida to'langan jarimalarga chegirma miqdori 30 foiz deb belgilangan.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

XODIM XIZMAT SAFARIGA KETSA ISH HAQI QANDAY TO'LADIDI?

Korxonadan xizmat safari bilan Toshkent shahriga yoki viloyatlarga ketgan ishchi-xodimning, xizmat safarida bo'lgan davriga ish haqi (tabel) qanday yoziladi? O'rindoshlik asosida ishlayotganlargachi?

S. Mirzayev.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagagi 424-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlarini to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizom qoidalari budjet tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari, budjet tizimi budgetlaridan mablag' ajratiladigan, belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg'armalar, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslardan tashqari boshqa barcha tashkilotlar va tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan tavsiyaviy xususiyatga ega.

Uning 12-bandiga ko'ra xizmat safariga yuborilgan xodimni xizmat safarida bo'lgan muddatda va yo'lida bo'lgan muddatda ish joyi (lavozimi), mehnatga haq to'lash shartlari, mehnatga haq to'lashning ishbay tizimdagagi xodimlar uchun o'r-tacha ish haqi saqlanib qoladi.

O'rindoshlik asosida ishlayotgan shaxs xizmat safariga ish beruvchilarning o'zaro kelishuviga asosida yuboriladi va uning o'r-tacha ish haqi uni xizmat safariga yuborgan tashkilotda saqlanadi. Xizmat safariga bir vaqtning o'zida ham asosiy, ham o'rindoshlik asosidagi ishi bo'yicha xizmat safariga yuborilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ichki o'rindoshlik asosida ishlayotgan shaxs xizmat safariga yuborilganda esa o'r-tacha ish haqi asosiy va o'rindoshlik asosidagi lavozim bo'yicha saqlanadi.



XAVFSIZLIK QURILMALARI BO'LISHI SHARTMI?

Bino va inshootlarida yong'inga qarshi turli vositalar bo'ladi. Xonalarda ham ular bo'lishi shartmi?

Sh. Nurmatov.



Yong'in xavfsizligi qoidalaring "Bino, inshoot va xonalarga qo'yiladigan yong'in xavfsizligi talablari" deb nomlangan 6-bobida bu savolga javob berilgan. Unga ko'ra binolar, inshootlar kabi xonalardagi yong'inga qarshi tizimlar va qurilmalar (tutunga qarshi himoya, yong'in avtomatikasi vositalari, yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimlari, yong'inga qarshi eshiklar, parda va klapanlar, tutun chiqarish lyuklari, yong'inga qarshi devor va shiftlardagi boshqa himoya moslamalari va shu kabilalar) doimo soz va ishchi holatda bo'lishi kerak, deb belgilangan.

INSON HAYOTI UCHUN ENG XAVFLI KASALLIK



TURLARI KO'P

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari — yurak, arteriyalar va venalar kasalliklari. Ular juda ko'p va xilma-xil. Bu kasalliklarning ba'zilari (revmatizm, miokardit va boshqalar) yurakni, ayrimlari arteriya (ateroskleroz) yoki venalarni (masalan, tromboflebit), boshqalari butun yurak-qon tomir tizimini shikastlaydi (gipertoniya kasalligi).

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari dunyo bo'yicha hozirgi kunga qadar nogironlik va o'llining asosiy sababi ekanligicha qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, barcha o'lim holatlarining 56 foizi yurak-qon tomir tizimi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi. Davlat statistika qo'mitasi xabariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida bu holat bundan ham yuqori.

SABABLARI

Hozirgi kunda aholi orasida yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanish yildan yilga ortib bormoqda. Ilgarilari bu kasalliklar asosan qariyalarda uchragan bo'lsa, hozirda 20 yoshli insonlarda ham miokard infarkti, arterial gipertoniya, yurak ritmining o'tkir buzilishi kabi kasalliklar uchramoqda.

Buning asosiy sabablariga globallashuv davrida, ekologik muhitning o'zgarib ketganligi, aholi o'rta-sida kamharakatlilik, jismoniy va ruhiy zo'riqish, ratsionda hayvon yog'lari ko'p bo'lgan mahsulotlarni ko'p iste'mol qilish, qonning quyuqlashishi va qon ivish holatining tezlashishi, zararli odatlar – spirli ichimliklar iste'moli, tamaki chekish, noto'g'ri ovqatlanish, kompyuterga mukkasidan ketish, gadjetlar, jismoniy faollikning pastligi va shirin ichimliklarga qaramlik kabi omillarni ko'rsatish mumkin.



BELGILARI

Yurak-qon tomir kasalliklarining asosiy belgilari qonda xolesterin miqdorining ortib ketishi, qon tomir devorlarida xolesterin pilakchalarining paydo bo'lishi oqibatida tomir ichining torayib qolishi, qonning quyuqlashishi, to'qimalarga qon bilan keladigan oziq moddalar va kislород оqимining pasa-yishi hamda hujayralarning kislородга bo'lgan ehtiyojining oshib ketishi bilan namoyon bo'ladi.

SAHIFANI SHIFOKOR B. PARDAYEV TAYYORLADI.

KENG TARQALGANLARI

Bugungi kunda aholi orasida yurak ishemik kasalligi, stenokardiya, miokard infarkti va uning oqibatida kelib chiqadigan turli xil asoratlar, ya'ni surunkali yurak yetishmovchiligi, yurak ritmining buzilishi, gipertoniya kasalligi va uning oqibatida kelib chiqadigan miya insulti, yurakning tug'ma nuqsonlari kabi kasalliklar ko'p uchramoqda.

Kasallikning boshlang'ich davrlarida bemorda kasallik belgilari namoyon bo'lmaydi yoki bemorni bezovta qilmaydi. Kasallik nogahon tibbiy tekshiruvlarda, ommaviy profilaktik tadbirdilar davomida (qon bosimini o'lchaganda, elektrokardiogramma qilinganda, qonni bioximik tahlili o'tkazilganda) aniqlanadi. Shuning uchun har bir inson bir yilda bir marta profilaktik tekshiruvlardan oilaviy poliklinika orqali o'tib turishi kerak.

KASALLIKKA CHALINMAY DESANGIZ...

Avvalambor, har bir ona homiladorlik davrida tug'iladigan farzandining sog'lom bo'lishi uchun e'tiborli bo'lishi kerak. Ko'pincha tug'ma nuqsonli bolalar homiladorlik davrida ko'p kasal bo'lgan, kamqonli, jismoniy va ruhiy charchagan onalardan tug'iladi. Farzandining sog'lig'iga ota-onha e'tibor berishi, shifokor nazoratidan o'tkazib turishi, farzandini sog'lom va jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashi kerak.

Balog'at yoshidan keyin har bir inson o'z sog'lig'i haqida qayg'urishi, kasallikning oldini olishi yoki boshlang'ich davrida aniqlab, uni bartaraf etish uchun harakat qilishi lozim. Yurak-qon tomir kasalliklari chalinmaslik uchun sog'lom turmush tarziga amal qilishi, jismoniy faollikni oshirishi, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatni me'yorda olib borishi, ovqatlanish gigienasiga amal qilishi, zararli odatlardan voz kechishi, kardiolog shifokor nazoratida bo'lib, o'z vaqtida davolanishi talab etiladi.

Bundan tashqari, ovqatlanishda ratsionning xilma-xilligiga e'tibor berish, oqsillarning yetarli bo'lishi, go'shtni baliq, dukkaklilar, parranda go'shtiga almashtirish, sabzavot va mevalarni ko'paytirish hamda osh tuzi iste'molini cheklash lozim bo'ladi.

Ushbu tavsiyalarga muntazam amal qilish bilan yurak-qon tomir kasalliklarining o'tkir miokard infarkti va miya insulti kabi og'ir asoratlarining oldini olgan bo'lamiz.



SHIFOKOR TAVSIYASI

Yurak kasalliklarining bosh sababi — sifilish. Stressga olib keluvchi sabablar esa kam uxlash yoki yaxshi uxlamaslik, chekish, ko'p miqdorda shirinliklar yoki alkogol iste'mol qilishdir.

Sog'lom ovqatlanib, jismoniy faollikni to'xtatmaslik kerak. Jismoniy mashqlarga haftasiga 150-180 daqiqa ajratsangiz kifoya. Ko'proq piyoda yurish, liftdan emas, zinalardan foydalangan ma'qul — oddiy, ammo samarasi juda zo'r. Yurak hamda qon tomirlarini muhofazalashda xolesterin miqdori va qon bosimini doimo nazorat qilib turish ham juda muhim. Tamaki chekishni esa butunlay unuting.

Torsten Dill,
mashhur nemis kardiologi.



BADANTARBIYA BILAN MASH-G'UL BO'LINSA, HECH QANDAY DORI-DARMONGA ZARURAT QOL-MAYDI, BUNING UCHUN MUAYYAN BIR TARTIBGA RIOYA QILMOQ HAM SHART.

BADANTARBIYANI TARK ETGAN ODAM AKSARI XAROB BO'LADI, ZERO HARAKATSIZ QOLGAN A'ZOLARNING QUVVATI ZAIFASHADI.

ABU ALI IBN SINO.

OGOHLANTIRUVCHI BELGILAR

HAR KIM HAM YURAK FAOLIYATIDAGI O'ZGARISHLARDAN OGHOHLANTIRUVCHI BELGILAR HAQIDA BILMASA KERAK.

AGAR O'ZINGIZDA QUYIDAGI 6 OGHOHLANTIRUVCHI BELGISINI SEZSANGIZ, ALBATTA SHIFOKORGA MUROJAAT ETING.

Odatda yurak kasalliklariga taxmin qilinuvchi og'riqlar: sanchiqlli, achishuvchan, ezib og'ruvchi, simillagan ko'rinishlarda bo'ladi. Bundan tashqari, og'riqlarni nafaqat yurak sohasi, balki tananing boshqa a'zolarida ham sezilish mumkin.

BO'YIN SOHASIDAGI OG'RIQ

Bo'yin sohasidagi simillab, cho'ziluvchan turga mansub og'riq asta-sekin chap yelka va qo'llarga tarqaladi.

HOLSIZLIK, NAFAS QISISHI

Holsizlik, kamquvvatlilik va ba'zan bosh aylanishi, nafas qisishi shifokorga ko'rinish uchuni yetarli asosdir.

KO'NGIL AYNISHI

Ayrim hollarda ko'ngil aynishi, lohaslik va jig'ildon qaynashi, tana bosimining ko'tarilishi ham kasallikning erta belgilardan bo'lishi mumkin.

TISH VA JAG' OG'RIQLARI

Kutilmaganda tish og'rig'ining paydo bo'lishi yurak-qon tomir faoliyatini bilan bog'liq bezovtaliklarning belgisi bo'lishi ham mumkin.

DIQQATNI JAMLOLMASLIK

Aritmiya (yurak pulsining tez yoki sekin urishi) sabab ayrim vaqtarda diqqatni jamlash qiyinlashib, parishonxotirlik yuzaga kelishi mumkin.

BOSH OG'RIG'I

Bosh og'rig'i tez-tez takrorlanib, ko'z oldida yorug'lik sinqlari aks etsa, albatta shifokorga uchrash zarur.

CHEMPION BO'LISHGA HARAKAT QILAMIZ

Futbolga kirib kelishimga dadam yordam borgan. O'zlar futbolga juda qiziqsan. Lekin futbolchi bo'lomaganlar. Dadam meni futbolga bongan. Avval Andijon viloyati futbol maktablariga borganman, so'ngra imtihonlarni topshirib, "Paxtakor" akademiyasiga kirganman.

Osiyo championati oldidan, bu yildan boshlab "Metallurg"-ga o'tdim. Terma jamoa tarkibiga kirish juda qiyin. Uning a'zosi bo'lishning o'zi juda katta baxt.

Men ham terma jamoaga qiyinlib kirganman. Terma jamoa a'zolaridan katta mas'uliyat talab qilinadi. Har bir qadamingizni o'ylab bosasiz. Chunki, 36 million aholi nomidan bunday nufuzli xalqaro musobaqada qatnashganingizda nafaqat yaxshi futbolchi, balki yaxshi inson ham bo'lishingiz shart, deb o'ylayman.

Osiyo championatida olgan hissiyotlarimizni hech qachon unutmaymiz. Ayniqsa, Prezidentimizning o'zlar finalda stadionga kelib o'yinimizni tomosha qilishi bizga katta kuch berdi. O'z yurtimizda, davlat rahbari ko'z oldida biz bu o'yinda faqat g'alaba



qilishimiz shart edi. Final o'yindan keyin Prezidentimizning biz bilan birgalikda kubokni ko'targanlari bizning hayajonimizni juda oshirdi. Champion bo'lganimiz mamlakatimizda futbolga ko'rsatilayotgan e'tibor, yaratilgan shart-sharoitlar mevasi bo'ldi.

Jamoadoshlarimiz bizni juda yaxshi kutib oshirdi. Hamma tabrikldi. Futbolda erishgan yutug'imizda o'zlarining hissalarini qo'shib bizga barcha shart-sharoitlarni qilib borganlarga kattadan katta rahmatlar aytaman.

Endilikda "Metallurg" bilan ham yaxshi natjalarga erishishni niyat qilganimiz. Shu bilan birga jahon championatida ham tengqurlarimiz bilan yuqori o'rirlarni ko'zlab boramiz. Biz jahonda ham champion bo'lish uchun harakat qilamiz.

Izzatillo PO'LATOV,
"Metallurg" jamoasi himoyachisi,
U-20 Osiyo kubogi g'olib.

O'ZIMIZGA ISHONCH YANADA OSHDI

Asli bekobodlikman. Dadam professional futbolchi bo'lgan. Ko'p yillar superligada to'p surgan. Dadam futbolchi bo'lganligi uchun ham men futbolga qiziqsanman. U kishi mening birinchi murabbiyim. 6 yoshimda dadam "Metallurg" qoshidagi kichkina maktabga olib bongan. Mana shu maktabda bizga Xurshid aka murabbiylik qilgan.

Futbolchi ruhiy tomondan kuchli bo'lishi kerak. Chunki futbolda ko'tarilish bilan birga pasayish ham bo'laadi. Mana shu pasayish vaqtida ruhiy tomondan kuchli bo'lganlar bu holatni albatta yengib o'tib ketadilar.

Juda ko'plar orzu qiladigan terma jamoa safida vatanimiz sharafini himoya qilish bizga nasib etganidan juda xursandmiz. Biz uchun bu baxt. Shu bilan birga juda mas'uliyatli va qiyin vazifa, deb o'ylayman. Chunki avvalombor boshqalar bilan bo'lgan raqobatni, ruhiy zorbalarini yengib o'tish kerak.

Ko'p sinovlardan o'tgan tarkibimiza gap bo'lishi mumkin emas. Terma jamoada eng yaxshilar to'plangan. Hammasi a'lo darajadagi futbolchilar.

Finaldan oldin hayajon bo'lmadi. Chunki muxlislar bizga dalda, ishtiyoq, kuch-quvvat berib turishdi. Har lahzada ularning bizni qo'llab-quvvatlab turganini his qildik.

Buning ustiga maydonga chiqishimiz bilan Yurtboshimizni ko'rdik. Bu bizning g'ala baga bo'lgan ishtiyo-



qimizni yanada oshirdi. Ruhiy tomondan kuch-quvvat olib, o'zimizga bo'lgan ishonchimiz yanada oshdi. "O'z uyingda devorlar ham yordam beradi" deyishganlaridek, o'yining Toshkentda bo'lgani ham bizga dalda berib Osiyo championi bo'ldik.

"Metallurg"da ichki muhit juda yaxshi. Jamoada bizni juda yaxshi kutib olib, samimi tabriklashdi.

Champion bo'lishimizda birinchi murabbiylarimizdan toki Osiyo kubogida g'olib bo'lishimiz uchun barcha sharoitlarni qilib bonganlar, terma jamoadagi murabbiylarimizning hissalarini katta. Bosh murabbiyimiz Ravshan Haydarov, yordamchi murabbiylarimizga rahmat. Shart-sharoitlar a'lo darajada bo'ldi.

Kelgusidagi rejalar katta. Avvalambor jahon championatida munosib ishtirok etish. Championatda bor kuchim bilan ishtirok etib, jamoa g'ala basiga hissami qo'shish.

Shahzodjon NE'MATJONOV,
"Metallurg" jamoasi yarim himoyachisi,
U-20 Osiyo kubogi g'olib.

COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA.

O'YINLAR MUROSASIZ KURASHLAR BILAN O'TMOQDA

TAJRIBA USTUN KELDI

Futbol bo'yicha O'zbekiston Superligasining 4-turida 2-aprel kuni "Metallurg" Bekobodda amal-dagi champion "Paxtakor" jamoasini qabul qildi.

O'zin toshkentliklar to'purari Cheranning benefisiga aylandi. Mehmonlar hujumchisi 41, 52, 79-daqqalarda mezbonlar darvozasini aniq nishonga oldi.

85-daqqada yosh hujumchimiz Husniddin G'ofurov bitta javob to'pini toshkentliklar darvozasiga kiritib, oradagi farqni qisqartirdi – 1:3. Bu hisob o'zin oxirigacha o'zgarmay qoldi.

G'ALABAQA YAQIN EDIK

Coca-Cola Superligasining 5-turida 8-aprel da "So'g'diyona" va "Metallurg" o'zaro bahs olib bordi. Bu uchrashuvda 2:2 hisobi qayd etildi.



Uchrashuvning 42-daqqasida Xislav Xalilov jizzaxliklarni hisobda oldinga olib chiqdi. Lekin jamoamiz vaziyatni o'nglay oldi. Ikkinci bo'limda Ibrohim Ibragimov muvozanatni tikldi. Ikkinci golni ham kiritib, oldinga ham chiqdik. 77-daqqada Zabihillo O'rınboev mehmonlarning ikkinchi goliga mualliflik qildi. Biroq oradan 2 daqiqa o'tib, Serder Serderov hisobni tenglashtirdi. Qolgan daqqalarda esa darvozalar ishg'ol etilmadi.

ISHONCHLI G'ALABA

Milliy championatimizning 6-turida "Metallurg" Olmaliqning OKMK jamoasini o'z maydonida qabul qilib, ishonarli g'ala baga erishdi.



Maydon egalari dastlabki daqiqalardanoq tezkor va shiddatli hujumlarga e'tibor qaratdi. Biroq bekobodliklar o'z maqsadlariga faqatgina ikkinchi taymda erishishdi. Bunga birinchi taym o'rtalarida OKMK sardori Sanjar Tursunovning maydonidan chetlatilishi ham yordam berib yubordi. O'yining 55-daqqasida Xudoyshukur Sattorovning uzun pasiga vaqtida ochilgan Ibrohim Ibragimov raqib posboni qarshisida yolg'iz qoldi va imkoniyatdan unumli foydalandi – 1:0.



Mehmonlar o'zlariga kelib ulgurishmasidan hisobdag'i farq oshdi. Bu safar tajribali Anzur Ismoilov hamda darvozabon Valijon Rahimovlar bir birlarini tushunishmadı. Natijada Shahzodjon Ne'matjonov 62-daqiqada bo'sh qolgan darvozani ishg'ol etib, Superligadagi ilk golini kiritdi – 2:0.

OLTI OCHKOLIK UCHRASHUVDA IMKONIYAT BOY BERILDI

24-aprel kuni "Metallurg" safarda "Andijon" klubi mehmoni bo'ldi. 7-tur doirasida o'tkazilgan bu o'yinda musobaqa jadvalida qo'shi bo'lgan jamoalar o'zaro ro'para keldi.

Bu jamoalar o'rtasidagi uchrashuvda maydon egalari muhim 3 ochkoga ega bo'lishdi. Barchasi vodiylklarning tezkor gollari evaziga yuzaga keldi. "Andijon"ning amalda birinchi hujumida o'ng qanot himoyachimiz hamda darvozabonimiz xatoga yo'l qo'yishdi. Oqibatda Sardor Azimovning qanotdan yetkazib bergen to'pini Rubin Xebay ikkinchi urinishda darvozamiz to'riga joylab qo'ydi. Bekobodliklar o'zlariga kelib ulgurishmasidan andijonliklar yana ikki marta muvaffaqiyat qozonishdi. Dastavval chap qanotdan jarimadan uzatilgan to'pda himoyachilarimiz tomoshabing aylanishdi. Natijada Rubin Xebay dublini rasmiylashtirdi. Oradan besh daqiqa o'tgach Levan Arveladze darvozabonimiz bilan yakkama yakka chiqib zafar quchdi – 3:0.

Uchrashuvning so'nggi daqiqalarida yana ikkita gol o'tkazib yubordik va hisob sharmandali ko'rinishga keldi. Murabbiylar shtabimizda va futbolchilarimizda keyingi uchrashuvgacha mag'lubiyat sabablarini o'rganish va keskin choralar ko'rish uchun vaqt bor. 8-tur uchrashuvlari muddatining o'zgarganligi bu borada ularga qo'l kelishi kerak. 9-turni "Metallurg" 4-may sanasida safarda "Buxoro"ga qarshi o'tkazadi.

QADRLAGAN QADR TOPADI

Bir shaharda katta bozor bo'lib, u juda gavjum ekan. Bir kun ikki mo'ysafid bozorni aylanib yurib, qiziq bir hodisaning guvohi bo'lishibdi.

Bir yigit qaerga bormasin ustida bir parcha bulut soya solib yurganiga ko'zlar tushib, bunda bir hikmat bo'lsa kerak, deb izma-iz kuzatib borishibdi.

Yigit, qassob yoniga kelib, "Aka, bir kilo chuchvarabob go'sht bering", - debdi.

Qassob yigit aytganday go'sht o'lchab beribdi. Yigit yana u-bu narsalar xarid qilib, uyiga ravona bo'libdi. Ikki mo'ysafid ham ortidan ergashib kelaverishibdi.

Uyga kiraverishda yigit mo'ysafidlarni ko'rib qolib, uyga taklif etibdi. Mo'ysafidlar bajonidil rozi bo'lishibdi.

IBRATLI HIKOYA

Mehmonlarni o'tirg'izib, oldilariga dasturxon yozib, o'zi chiqib ketibdi.

Yigit nima qilar ekan deb orqasidan kuzatib mo'ysafidlar tashqariga chiqishsa, yigit xotiniga: "Mana bu go'shtdan darrov chuchvara qil, otam "Chuchvara yegim kelyapti" - degandilar debdi.


Xotini bir oz vaqt ichida chuchvarani tayyorlab, ovqatni eriga uzatibdi. Yigit ovqatning oldini kosaga solib bolaxon-naga chiqibdi. Bolaxonada "Ota, mana aytgan ovqatingiz", - deb kosani zanjir-band qilingan bir mahluqqa uzatibdi. Bu holni ko'rgan mo'ysafidlar hech narsa demay hammasiga tushundilar. Ular ota-onasi kim bo'lishidan qat'iy nazar ularni qadrlaganlarni, g'amxo'rlik qilg'anlarni Alloham ulug'lashiga guvoh bo'lishgan ekan.

"O'g'ling urushda dom-daraksiz ketdi", - deyishdi onayizorga. Bu xabardan u qattiq kuydi. Lekin buni boshqalarga sezdirmaslikka harakat qildi. Kechalari o'g'lining ismini aytib yig'lab olardi. Urush ham tugadi. O'g'lining daragi chiqmadi. O'g'lini topishda yordam berishlari ni so'rab murojaat qilmagan joyi qolmadi. Biroq tayinli javob bo'lindi. Yillar ketidan yillar o'tdi. Biroq ona intizorlik va umid bilan farzandini kutdi. O'g'lini yana bir bor ko'rish, bir daqiqa bo'lsa ham suhbatlashish ilinjida yashab o'tdi.

Uzoq umr ko'rdi. Hayotining so'nggi onlarida darvoza tomonga xiralashgan ko'zlar bilan qaradi-da, - "Qaranglarchi o'g'lim kelmadimi?" - dedi.

Onayizorning so'nggi so'zları shu bo'ldi. Biroz o'tgach, ko'zlaridan ikki tomchi yosh oqdi-da, hayot bilan mangu vidolashdi.

KUTISH



Ismat DIYOROV.

QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

AKA-UKA

Aka uqlab yotgan ukasining ustiga o'z ko'rpusini yopib qo'yib, o'zi ham uyquga ketdi. Uyg'onsa ko'rpa yana o'zing ustida.

Jamshid Cho'ponov.



NAMOZ

Bir kuni to'ydan kech qaytgan kishining ko'ngli behuzur bo'lib, yegan-ichganlarining hammasini unitazga tashladi. Xotini erining o'qchib-o'qchib qayt qilishiga rahmi keldi, shekilli, chuqur "uh" tortib dedi:

- "Namoz o'qing, namoz o'qing" deyman, hech qulqol solmaysiz. Joynomozga sajda qilganingizda, hozir unitazga sajda qilib o'tirmagan bo'lardingiz...

EVAZ

6 yoshli qizaloq hech qachon ko'rmangan onasining suratiga boqqancha savol berdi:

- Dada nega biz hech qachon tug'ilgan kunimni nishonlamaymiz?

Firdavs Hoshimjonov.

ZAMONAVIY OBRO'

- Bugun tarmoqdagi statusimga 65 ta layk bosishdi, 27 ta izoh yozishdi, 6 marta ulashishdi. Qalay? Senda nima gaplar?

- Senchalik emas. Ustozimdan bir marta rahmat eshitdim, qoshni qariya barakalla dedi, onam esa mehr bilan quchib qo'ydi.

Nodirabegim Ibrohimova.



MUASSIS:
O`zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatasi.

WWW.uzbeksteel.uz

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2015-yil 6-mayda 03-006 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar "O`zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining Metallurglar madaniyat saroyida joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va "Niso Poligraf" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'rta Chirchiq tumani, "Oq ota" hududi "Mash`al" mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqt 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O`zmetkombinat"
AJda bepul tarqatiladi.

Buyurtma №

XANDALAR

Yana ro'parangdan chiqib qolmasin!

- Bitta mashina deysizmi, dadasi?!
Menden boshqa hamma mashina teskari yuribdi, hammasi...

Bemor vrachga kelib debdi:

- Doktor menga yordam bering. Fikru xayolim faqat telegramda, kunduzi ham, kechasi ham gruppadam! Nima qilay, maslahat bering...

Vrach:

- Bu jiddiy kasallik. Yuring, siz bilan licha-kada gaplashamiz.